



JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING ARIZA, TAKLIF VA SHIKOYATLARINI KO'RIB CHIQUISHDA PROBATSIYA XIZMATIDAGI O'ZIGA XOS JIHATLARI

Umaralievna Dilshodaxon Nabijonovna

IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi kafedrasida katta o'qituvchisi

Boymurodov Bahrom Xolboy o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada probatsiya xizmatida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash jarayonining huquqiy-tashkiliy asoslari, ariza, taklif va shikoyatlarni ko'rib chiqish jarayoni, murojaatlarni qabul qilish va ko'rib chiqish bosqichlari, idoralararo hamkorlik tizimi hamda nazorat ostidagi shaxslar bilan individual ishlash xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, probatsiya tizimida murojaatlar orqali aniqlanadigan ijtimoiy muammolarni bartaraf etish va huquqiy yordam ko'rsatish mexanizmlarining samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Probatsion nazorat, murojaatlar tahlili, huquqiy mexanizm, ijtimoiy adaptatsiya, individual yondashuv, profilaktik ishlar, huquqiy yordam, reintegratsiya jarayoni, davlat boshqaruvi, nazorat ostidagi shaxslar, muammolarni hal qilish, idoraviy hamkorlik.

АННОТАЦИЯ. В данной статье анализируются правовые и организационные основы процесса работы с обращениями физических и юридических лиц в службе пробации, процесс рассмотрения заявлений, предложений и жалоб, этапы приема и рассмотрения обращений, система межведомственного взаимодействия и особенности индивидуальной работы с поднадзорными лицами. Также обоснована эффективность механизмов



устранения социальных проблем, выявляемых посредством обращений, и оказания правовой помощи в системе пробации.

Ключевые слова: пробационный контроль, анализ обращений, правовой механизм, социальная адаптация, индивидуальный подход, профилактическая работа, правовая помощь, процесс реинтеграции, государственное управление, лица под надзором, решение проблем, ведомственное сотрудничество.

ANNOTATION. This article analyzes the legal and organizational foundations of the process of working with appeals from individuals and legal entities in the probation service, the process of reviewing applications, proposals, and complaints, the stages of receiving and reviewing appeals, the system of interdepartmental cooperation, and the specifics of individual work with supervised persons. The effectiveness of mechanisms for eliminating social problems identified through appeals and providing legal assistance within the probation system has also been substantiated.

Keywords: probation control, analysis of appeals, legal mechanism, social adaptation, individual approach, preventive work, legal assistance, reintegration process, public administration, supervised persons, problem-solving, departmental cooperation.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, probatsiya organlariga kelib tushadigan murojaatlar odatda uch asosiy yo‘nalishni qamrab oladi: ijtimoiy yordam olish (ish, yashash sharoiti), huquqiy tushuntirish so‘rovlari hamda nazorat shartlarini qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha arizalar. Bu murojaatlar faqat hujjat sifatida emas, balki shaxsning ijtimoiy holatini diagnostika qilish vositasi sifatida ham tahlil qilinadi.

Ichki ishlar organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari



to'g'risida"gi Qonun, Vazirlar Maxkamasining 07.05.2018 yildagi 341-sonli qarori bilan tasdiqlangan Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risida namunaviy nizom hamda O'zbekiston Respublikasi IIVning "Ichki ishlar organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 24.04.2024 yil 200-sonli buyrug'i asosida tartibga solinadi.

Davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxslariga kelib tushgan murojaatlar shu organ, tashkilot tomonidan yoki murojaatlarni ko'rib chiqish bo'yicha zimmasiga majburiyatlar yuklatilgan mansabdor shaxslar tomonidan ko'rib chiqiladi. Davlat organiga, tashkilotga kelib tushgan murojaatlar bo'ysunuv tartibida quyi turuvchi bo'linmalarga ham yuborilishi mumkin.

Agar murojaatda davlat organlari, tashkilotlarning bir nechta tarkibiy bo'linmalariga taalluqli masalalar mavjud bo'lsa, ularning barchasi murojaatni ko'rib chiqish bo'yicha ijrochilar etib belgilanadi. Ijrochilar o'rtasida birinchi ko'rsatilgan tarkibiy bo'linma murojaatning ko'rib chiqilishini boshqa tarkibiy bo'linmalar bilan birgalikda ta'minlaydi.

Murojaatni to'liq, xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqish uchun qo'shimcha ma'lumotlar, ma'lumotnomalar va materiallarga zarurat paydo bo'lgan taqdirda, mazkur murojaatni ko'rib chiqayotgan davlat organi, tashkilot yoki ularning mansabdor shaxslari murojaat etuvchidan, shuningdek o'z vakolatlari doirasida boshqa davlat organlaridan, boshqa tashkilotlardan va mansabdor shaxslardan qo'shimcha axborotni so'rab olishi mumkin. Agar axborot davlat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bo'lmasa, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazmasa, davlat organlari, tashkilotlar va mansabdor shaxslar o'zlaridan so'ralayotgan axborotni **10 kun** ichida taqdim etishi shart.



Murojaatlarni ko‘rib chiqayotgan davlat organi, tashkilot yoki ularning mansabdor shaxslari zarur hollarda, murojaatning joyning o‘ziga borib ko‘rib chiqilishini ta‘minlashi mumkin¹.

Ariza yoki shikoyat masalani mazmunan hal etishi shart bo‘lgan davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxsiga kelib tushgan kundan e‘tiboran **15 kun ichida**, qo‘shimcha o‘rganish va (yoki) tekshirish, qo‘shimcha hujjatlarni so‘rab olish talab etilganda esa, **1 oygacha** bo‘lgan muddatda ko‘rib chiqiladi.

Ariza va shikoyatlarni ko‘rib chiqish uchun tekshirish o‘tkazish, qo‘shimcha materiallarni so‘rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko‘rish zarur bo‘lgan hollarda, ularni ko‘rib chiqish muddatlari tegishli davlat organining, tashkilotning rahbari tomonidan istisno tariqasida uzog‘i bilan **1 oyga** uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga xabar qilinadi.

Taklif davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxsiga kelib tushgan kundan e‘tiboran **1 oygacha** bo‘lgan muddatda ko‘rib chiqiladi, qo‘shimcha o‘rganishni talab etadigan takliflar bundan mustasno bo‘lib, bu haqda taklifni kiritgan jismoniy yoki yuridik shaxsga **10 kunlik** muddatda yozma shaklda xabar qilinadi.

Murojaatlarni ko‘rib chiqishda ichki ishlar organlari xodimlarining huquqlari:

- Murojaatni ko‘rib chiqish uchun zarur bo‘lgan ahborotni belgilangan tartibda so‘rash va olish;
- Murojaat qiluvchi, uning vakili yoki boshqa shaxslarning ishtirokisiz murojaatni ko‘rib chiqish mumkin bo‘lmaganda ularni eshitish uchun chaqirish;
- Bila turib yolg‘on ma‘lumotlar ko‘rsatilgan murojaatni tekshirish sababli sarflangan xarajatlarning o‘rmini qoplash uchun sudga murojaat qilish.

¹ Ўзбекистон Республикасининг “Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисида”ги Қонуннинг 24-моддаси



Murojaatlarni ko‘rib chiqishda ichki ishlar organlari xodimlarining majburiyatlari:

- murojaatlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;
- murojaat qiluvchiga uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta‘minlashi, agar ular davlat siri yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sir bo‘lgan ma‘lumotlarni o‘z ichiga olsa, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazsa bundan mustasno;
- jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish vaqtida yuqori bilim, kasbiy mahorat va huquqiy tayyorgarlikni namoyon etishi, muomala madaniyatiga rioya qilishi, ularning muammolarini to‘liq tinglash va qayd etishi;
- murojaat etuvchiga ko‘rib chiqish natijalari hamda qabul qilingan qaror haqida murojaat ko‘rib chiqilganidan so‘ng yozma yoxud elektron shaklda darhol xabar qilishi, ommaviy qabullar vaqtida tushib, joyida hal qilingan og‘zaki murojaatlar bundan mustasno;
- jismoniy yoki yuridik shaxs murojaati yuzasidan qabul qilingan qarordan norozi bo‘lsa, ushbu qaror ustidan shikoyat berish tartibini tushuntirishi;
- murojaatni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra qabul qilingan qarorning ijrosini nazorat qilishi;
- qonunga xilof harakatlar (harakatsizlik)ni bartaraf etish yuzasidan darhol choralar ko‘rishi, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishini keltirib chiqaruvchi sabablar va sharoitlarni o‘z vakolatlari doirasida aniqlashi;
- jismoniy shaxs, uning vakili, ularning oila a‘zolari, yuridik shaxs, uning vakili va yuridik shaxs vakilining oila a‘zolari murojaatlari sababli ta‘qib etilishini belgilangan tartibda bartaraf etishi;



- murojaatlarni ko‘rib chiqishda jismoniy shaxslarning shaxsiy hayoti, yuridik shaxslarning faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ularning roziligisiz oshkor etmasligi;
- murojaat qiluvchidan murojaatga taalluqli bo‘lmagan ma‘lumotlarni talab qilmasligi;
- jismoniy shaxsning iltimosiga ko‘ra uning shaxsiga doir ma‘lumotlarni sir saqlashi;
- agar jismoniy yoki yuridik shaxsga uning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini buzilishi natijasida moddiy zarar yoki ma‘naviy ziyon yetkazilgan bo‘lsa, qonunda belgilangan tartibda moddiy zararining o‘rnini qoplash yoki ma‘naviy ziyonni kompensatsiya qilish choralarini ko‘rishi shart².

Rasmiy qonunchilikka muvofiq, murojaatlar belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqilishi shart bo‘lib, bu jarayon qonuniylik, ochiqlik va adolat tamoyillariga asoslanadi. Biroq probatsiya xizmatida ushbu jarayon qo‘shimcha ravishda individual tahlil bilan boyitiladi.

Probatsiya tizimining eng muhim o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, murojaatlar orqali shaxsning ijtimoiy muammolari aniqlanadi va ular idoralararo hamkorlik asosida hal etiladi. Masalan, ishga joylashish, ijtimoiy yordam olish yoki huquqiy cheklavlarni tushuntirish bilan bog‘liq arizalar tegishli tashkilotlar bilan birgalikda ko‘rib chiqiladi.

Shu bilan birga, Ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoga hukm qilingan mahkum muayyan vaqtda yashash joyidan ketish, tegishli ma‘muriy hudud doirasida joylashgan ma‘lum joylarga borish yoxud tegishli ma‘muriy hudud doirasidan chiqish uchun hamda yashash joyini o‘zgartirishni so‘rab murojaat etganda, taqiqlarning (cheklashlarning) xususiyatlaridan, mahkumning shaxsidan, uning

1. ² Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг “Ички ишлар органларида жисмоний ва юридик шахсларнинг murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish tўғрисида”ги 24.04.2024 йил 200-сонли буйруғи



xulq-atvoridan, tasdiqlovchi hujjatlar mavjudligidan kelib chiqqan holda ruxsatnoma beradi.

Uy-joyidan chiqib ketishiga butunlay taqiq belgilangan probatsiya nazoratidagi shaxsning doimiy yashash joyidan ketishi, probatsiya nazoratidagi shaxsning tegishli ma'muriy hudud doirasidan chiqishi, shuningdek, probatsiya nazoratidagi shaxsning yashash joyini o'zgartirishi haqidagi murojaati asosida mazkur Yo'riqnomaning 18-ilovasiga muvofiq shaklda rasmiylashtirilgan ruxsatnoma sanksiya berish masalasini ko'rib chiqish uchun hududiy prokurorga yuboriladi³.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, murojaatlar bilan samarali ishlash nazorat ostidagi shaxslarning jamiyatga qayta integratsiya bo'lish jarayonini tezlashtiradi. Ijtimoiy muammolar o'z vaqtida hal etilganda huquqbuzarlik xavfi sezilarli darajada kamayadi va probatsiya tizimining profilaktik samaradorligi oshadi.

Probatsiya xizmati O'zbekiston Respublikasining jinoyat ijro tizimida sud tomonidan ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazo turlarini ijro etish va nazorat qilishga mas'ul bo'lgan institut sifatida shakllangan. 2024-yilda qabul qilingan "Probatsiya to'g'risida"gi Qonun hamda 2017-yildagi "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida"gi qonun ushbu tizimda murojaatlar bilan ishlashning huquqiy asosini belgilaydi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, murojaatlar bilan samarali ishlash probatsiya tizimining profilaktik samaradorligini bevosita oshiradi. Chunki ijtimoiy muammolar (ishsizlik, huquqiy tushunmovchilik, yashash sharoiti) o'z vaqtida hal etilganda qayta jinoyat sodir etish ehtimoli kamayadi.

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, probatsiya xizmatida murojaatlar bilan ishlash tizimi oddiy hujjat yuritish emas, balki huquqiy nazorat, ijtimoiy rehabilitatsiya va kriminal profilaktikani birlashtirgan murakkab boshqaruv

³ Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирининг 2025 йил 19 июлдаги "Пробация назоратидаги шахсларнинг хулқ-атвори устидан назоратни амалга ошириш тартиби тўғрисидаги йўриқномани тасдиқлаш ҳақида"ги буйруғи



modelidir. Uning samaradorligi esa individual yondashuv, idoralararo hamkorlik va tizimli monitoring darajasiga bevosita bog‘liqdir.

Umuman olganda, probatsiya xizmatida murojaatlar bilan ishlash tizimi huquqiy davlat tamoyillarini mustahkamlash, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda jamiyat xavfsizligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘p funktsiyali mexanizm sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 19.09.2016 yildagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-407-son qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 7 avgust kunidagi “Probatsiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-938-son qonuni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 noyabrdagi “Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4006-son qarori
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.11.2021 yildagi “O‘z. R. Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son farmoni
5. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 19.07.2025 yildagi “Probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi 403-son buyrug‘i.
6. O‘zbekiston Respublikasining **2017 yil 11 sentabrda** yangi tahrirda qabul qilingan “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni
7. O‘zbekiston Respublikasi IIVning “Ichki ishlar organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 24.04.2024 yil 200-sonli buyrug‘i